



“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi


ULUSLARARO ILMIY-NAZARIY KONFERANS

Toshkent, 2023-yil 25-26-sentabr

THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE ADVANCEMENT OF EASTERN STATEHOOD AND CULTURE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

Tashkent, September 25-26, 2023



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ
DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI
RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy
konferansi materiallari**

Toshkent – 2023

“BOBURNOMA”DA SHUARO ZIKRI

Ilyos Ismoilov Abduqayumovich*

Annotatsiya

Zahiriddin Muhammad Bobur ma’rifatparvar temuriy hukmdorlardan biri sifatida dunyo tarixida o’chmas iz qoldirdi. U yoshligidanoq hayotning shafqatsiz sinovlariga duch kelgani, umr so’qmoqlarida ko’p mashaqqatlarga yo’liqqani va Oллоh bergan iste’dodi tufayli badiiy ijod bobida ham kamolotga erishdi. Ayniqsa, uning “Boburnoma” asari boshqa fanlar qatori adabiyotshunoslik ilmimiz uchun ham juda muhim manba bo’ldi. Ushbu maqolada “Boburnoma”ning adabiyotimiz tarixi bilan bog’liq jihati tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: *temuriylar davri, Bobur, Davlatshoh Samarqandiy, shoirlar, Jomiy, Navoiy, Suhayliy, Osafiy.*

"INCLUSION OF SHUARO (POET) IN THE "BABURNOMA" NARRATIVE"

Annotation

Zahir ad-Din Muhammad Babur, an enlightened Timurid ruler, left an enduring legacy in world history. Throughout his life, he confronted numerous hardships and trials, yet his innate talent, bestowed by Allah, allowed him to mature as an artistic creator. His renowned work, "Baburnoma," holds particular significance as a valuable source not only for literature but also for various academic disciplines. This article delves into the exploration of the "Baburnoma" aspect that pertains to the history of literature, shedding light on its enduring influence.

Key words: *Timurid period, Babur, Davlatshah Samarkandi, poets, Jami, Navoi, Suhaili, Asafi.*

Temuriylar hukmronligi davrida madaniyat, san’at va adabiyot ravnaq topdi. Buyuk shoirlar kamolga yetdi. Xususan, Husayn Boyqaro zamonida Hirotda ulkan adabiy muhit yuzaga keldi. Boyqaroning o’zi ham “Husayniy” taxallusi bilan ijod qildi. Husayn Bayqaro “Risola”sida o’z hukmronlik davrida Hirotda vujudga kelgan adabiy muhit haqida to’xtalar ekan, Hirotda mingga yaqin ijodkorning ishi “nazm durlarini nazm silkiga tormoq” [Бойқаро 1991, 12] ekanligini qayd etadi. Husayn Boyqaroning mazkur fikrlari faxriyadek tuyulsa-da, ayni haqiqat edi. Buni Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da tasdiqlab shunday yozadi: “Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg’ullug’i bor edi, himmati va g’arazi ul edikim, ul ishni kamolga tegurgay” [Бобур 2002, 136 – 137].

Bobur faqat ushbu adabiy muhit haqida xabar berish bilan cheklanmaydi, balki uni vujudga keltirganlardan bo’lgan muhim adabiy siymolar, jumladan, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Abdullo Marvorid, Osafiy haqida ham muxtasar to’xtaladi. Alisher Navoiyning kichik zamondoshi sifatida Boburning mazkur shoirlar to’g’risida keltirgan ma’lumotlari ancha qimmatli bo’lib, ularni shu xarakterdagi boshqa ma’lumotlar bilan qiyoslab o’rganish ilmiy ahamiyatga molik.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori, ismoilov_iles@mail.ru

Xususan, Hirot adabiy muhitini yaxshi bilgan va bevosita Alisher Navoiyning zamondoshi bo'lgan Davlatshoh Samarqandiy mazkur shoirlar haqida batafsil yozib qoldirgan. Bu ikki manbadagi ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash qiziqarli xulosalarga olib keladi.

Abdurahmon Jomiy zikri. Bobur Abdurahmon Jomiyi Husayn Boyqaro zamonining fozillari, shoirlari qatorida tilga oladi. "Boburnoma"da Jomiy haqida turli masalalar munosabati bilan ko'p to'xtalgan bo'lsa-da, u haqda, asosan, zamona fozillari zikrida yozadi: "Bu jumladin bir Mavlono Abdurrahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi. She'ri xud ma'lumdur. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta'rifka ehtiyoji bulg'ay. G'oyatash xotirg'a kechtikim, bu muhaqqar ajzoda tayammun va tabarruk jihatidin alarning otlari mazkur va shammae sifatlaridin mastur bulgay" [Бобур 2002, 137]. Bobur Husayn Boyqaro zamonining shoirlari haqida yozar ekan, dastlab, Jomiyi tilga olib "Shuarodin: bu jam'ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurrahmon Jomiy edi" [Бобур 2002, 138], deydi. Jomiy haqida "Boburnoma"da kelgan ma'lumotlar, asosan, mana shulardan iborat. Bobur Jomiy haqida yozar ekan ko'proq ikki jihat – "zohir va botin ulumi"da (shariat va haqiqat ilmlarida) benazirligi va zamona shoirlarining saromadi ekanligiga urg'u beradi. Uni e'zozlab martabasi ta'rifga muhtoj emasligini ham aytadi.

Davlatshoh Samarqandiy ham "Tazkirat ush-shuaro"da Abdurahmon Jomiyga alohida bir fasl ajratgan. Asar shoirlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan maxsus tazkira bo'lganligi bois unda ma'lumotlar ancha batafsil. Jomiyning tug'ilishidan tortib vafotiga qadar bo'lgan muhim ma'lumotlar, ijodi haqidagi fikrlarni o'qish mumkin: "Jomiy mayxonasining eshigi ochilgach, nomdor rindlar majlisi shikast yedi va fikrning bokira keliniga bu ma'no mardi xaridor bo'lgach, da'vo hujralarining pardanishin ayollari bebahra va ojiz qoldilar. Devon-u munshoatining savodi Hindning shirinsuxan to'tilarini xomush qildi va Fors maydonining shirin zabonlari-yu chavondoqlari ash'ori bolidan tatib ko'rgach, boshqa shirinsuxanlar kalomini namakdoniga qo'l cho'zmadilar" [Самарқандӣ 2015, 446] (*tarjimalar bizniki – I.I.*). E'tibor berilsa, Davlatshoh ham dastlab Jomiyning shoirligi, ijodkorligiga urg'u bermoqda. Biroq yuqoridagi ta'rifning mohiyatida Jomiyning irfoniy haqiqatlarni shoirona uslubda ifodalagani ham aks etgan. Ya'ni Davlatshoh ham Bobur kabi Abdurahmon Jomiy shaxsining eng muhim jihatlari sifatida shoirlilik va oriflikni ko'rsatadi. Faqat Jomiyga berilgan ikki tavsif o'rtasida nozik farq ham mavjud. Bobur Jomiyi, avvalo, fozil shaxs, zohir va botin ilmining bilimdoni, so'ngra shoir sifatida tavsiflansa, Davlatshoh Jomiyi ko'proq buyuk shoir, shu bilan birga "dimog'i haqoyiq-u maorif gulzori rayhonlaridan muattar" inson sifatida tasvirlaydi.

Alisher Navoiy zikri. Bobur Alisher Navoiy zikrida o'zi eng muhim deb bilgan bir necha jihatlarga to'xtalgan. Bular Alisherning Husayn Boyqaro bilan munosabati, hayoti, xarakteri, Samarqandga borishining sababi, ijodi, fazilat va hunar ahliga murabbiyligi va o'limi kabi masalalardir. Davlatshoh ham bularning askari, ayniqsa, ijodi haqida ancha batafsil yozib qoldirgan. Bu o'rinda ayrim tafovutlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shulardan biri "Xamsa" masalasidir. Bobur aytadi: "Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida" [Бобур 2002, 132]. Davlatshoh ham ayni masalaga e'tibor qaratib, quyidagicha yozadi: "Bugunga kelib u latif tab'dan orif shayx Nizomiy (Olloh rahmat qilsin) "Xamsa"siga turkiy tilda javob yuzaga keldi, hech kim bu ulug' amirdan avval bunday yaxshi ishga sa'y qilmagan edi. Darhaqiqat, u dostonida ma'nolar

dodini berdi” [Самарқандӣ 2015, 456]. E’tiborli tomoni shuki, Davlatshoh Navoiyning “Xamsa”si aynan Nizomiy “Xamsa”siga javoban yozilganini qayd etadi. Bu ma’lumot ikki jihatdan ahamiyatli, birinchidan, u Alisher Navoiy davrida Nizomiyning besh dostoni “Xamsa” sifatida tan olingani va xamsanavislik an’anasining bosh bo’g’ini sifatida e’tirof etilganini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, Navoiy o’z “Xamsa”sini kimga javoban yozganligi haqidagi masalaga oydinlik kiritadi. Garchi Navoiyning o’zi “Xamsa”sidagi har besh dostonni alohida-alohida dostonlarga tatabbu ekanini aytsada, Navoiyning o’z asari ham, Navoiy tatabbu qilgan asarlar ham – barchasi mohiyat e’tibori bilan Nizomiy “Xamsa”siga javobdir. Shu ma’noda, Navoiy “Xamsa”sini Nizomiy “Xamsa”siga javob deyish eng to’g’risi va Navoiy “Xamsa”siga oid tadqiqotlarni kamida Nizomiy dostonlarini o’rganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Davlatshohning Alisher Navoiy “Xamsa”siga oid ma’lumotlaridagi yana bir jihat e’tiborga molik. Davlatshoh fikrlarining isboti uchun Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi “Layli va Majnun” dostonidan ikki bahoriyot baytni keltirib, ularda Navoiyga xos yuksak tashbehlar-u xayolot mujassam ekanligini aytadi:

Abyot:

*Marz uzra bisyor zebarga javshan,
Shashpar ko’tarur boshig’a savsan.
Lola varaqin berib sabog’a,
Bag’ri qarodek uchar havog’a* [Самарқандӣ 2015, 456].

Darhaqiqat, bu “Layli va Majnun” dostonining XII bobidan olingan iqtibos. E’tiborlisi, mazkur ikki baytning dastlabkisi Alisher Navoiy asarlarining yigirma tomlik va oxirgi o’n tomlik nashrida xuddi shunday berilgan. Ammo ikkinchi bayt har ikki nashrda Davlatshoh bergan variantdan farq qiladi. Har ikki zamonaviy nashrda mazkur bayt quyidagicha berilgan:

*Dasht uzraki sayr o’lur sabog’a,
Bag’ri qoralar uchar havog’a* [Навоий 1992, 77; 2011, 68].

Ushbu bayt qay tarzda bu holga kelgani maxsus o’rganishni talab qiladi. Ammo hozircha aytish mumkin bo’lgani shuki, bu bayt Davlatshoh keltirgan variantda to’g’riroq bo’lishi kerak. Chunki Davlatshoh o’z tazkirasini Navoiy hayotligida, uning xabari bo’lgan holda, “Xamsa” yozilganidan ko’p o’tmay yaratgan. Qayd etish kerakki, “Layli va Majnun”ning mavjud nusxalari orasida qaysi birida baytning Davlatshoh keltirgan variant berilgan bo’lsa, ana o’sha nusxa nisbatan qadimiyroq va asliyatga yaqinroq bo’lishi kerak. Matnshunoslarimiz bu masalaga e’tibor qaratishadi, deb umid qilamiz.

Bobur va Davlatshohning Alisher Navoiyga oid qarashlaridagi yana bir farqli nuqta zullisonaynlik masalasida ko’zga tashlanadi. Bobur Navoiyning turkiy tildagi asarlari va ijodiga yuqori baho bergan, ammo forsiy she’riyatini maqtamaydi [Бобур 2002, 133]. Boburning ifoda tarziga ochiqlik va keskinlik xos. Davlatshohda buning aks ifodasini ko’ramiz. Davlatshoh Navoiy yigitlik davrida turkiy va forsiy tillarda baravar ijod qiluvchi – zullisonayn shoir bo’lib yetishganini ta’kidlab shunday yozadi: “Yigitlik chog’ida zullisonayn bo’ldi va turkiy tilda sohibfanga, forsiy tilda sohibfazlga aylandi” [Самарқандӣ 2015, 455]. Davlatshoh Boburning bahosini qisman tasdiqlagandek tuyuladi, ammo Davlatshohning fikrini ikki xil tushunish mumkin. Birinchidan, Davlatshoh o’z fikrini “turkiysi yaxshi, forsiysi sust” tarzida emas, balki “forsiy she’rlariga nisbatan turkiy she’rlari yaxshiroq” ma’nosida ishlatgandek. Chunki

sohibfan (mushkillarni hal etuvchi, ustoz) sifati bilan **sohibfazl** (fazilat sohibi) sifati daraja nuqtayi nazaridan qisman farqli ma'nolarni anglatadi, ammo keskin farqqa ham ega emas. Ikkinchidan, har ikki sifat "yaxshi, e'tirofga loyiq" degan umumiy mazmunni ham ifodalaydi.

"Tazkirat ush-shuaro"da Davlatshoh Navoiyning forsiy she'rlari sust bo'lmagan deb hisoblaganini tasdiqlovchi yana boshqa dalillar ham bor. Xususan, Davlatshoh o'z tazkirasida Navoiyning "Tuhfat ul-abror" qasidasini "g'arro" (jo'shqin, porloq, juda zo'r) deb ta'riflaydi. Bu qasidalarga beriladigan eng yuqori bahodir. Shuningdek, bu qasida Xusrav Dehlaviyning "Bahr ul-abror" nomli qasidasiga yozilgan javoblar orasida eng afzali ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur ikki bahoning o'zi Navoiyning forsiy she'riyati qanchalik yuqori darajada ekanligiga ishonchli dalil bo'la oladi.

Bobur Alisher Navoiy xayrli binolar qurdirishga ko'p uringani, unga nasib etgani kam kishiga nasib etganini yozadi [Бобур 2002, 133]. Davlatshoh ham Navoiy juda ko'p xayrli binolar qurdirganini aytishdan tashqari, ulardan bir qanchasining nomlarini ham keltiradi. Bu borada Davlatshoh bergan yana bir qiziq ma'lumot qurilgan binolarning ta'minoti masalasiga oiddir. Davlatshohning qayd etishicha, xayrli binolar uchun Alisher Navoiy tomonidan qilingan vaqflar taxminan 500 tuman kepakiy qiymatida bo'lgan. Bobur ham Navoiy "yilda mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilur edi" [Бобур 2002, 133] desa ham, aniq raqamlar keltirgan emas.

Bobur Navoiy va Binoiy munosabatlariga ham to'xtalgan. Lekin Davlatshoh tazkirasida bu masala haqida yozmaydi.

Shayxim Suhayliy zikri. "Boburnoma"da bu Suhayliyning zikri juda oz berilgan. Bobur devoni va masnaviysi bor deyish bilan cheklanadi. Bir xil uslubda ijod qilishini qayd etib, "qo'rqqudek alfoz va maoniy" ifodalashini, bir safar bir baytini o'qiganda Abdurahmon Jomiy hazilomuz tarzda "Mirzo, she'r aytasiz yo odam qo'rqutasiz?" deganini ham eslab o'tadi [Бобур 2002, 134]. Davlatshoh ushbu voqea haqida yozmaydi. Lekin ayrim farqli ma'lumotlarni zikr qiladi. Davlatshohning yozishicha, Suhayliyning ikki devoni bo'lgan. Ulardan biri turkiy devon, ikkinchisi forsiy devon bo'lgan. Turkiy devonidan to'qqiz baytli bir g'azalini ham keltirgan. Davlatshoh qaydlaridagi yana bir e'tiborli jihat Suhayliy taxallusining olishi bilan bog'liq. Unga ko'ra, Suhayliy yigitlik davrida orif shayx Ozariy mulozamatida bo'lgan va ilm o'rgangan va unga "Suhayliy" taxallusini aynan shayx Ozariy bergan [Самарқандӣ 2015, 465]. "Majolis un-nafois"dan ma'lumki, Navoiy ham zamondoshi bo'lgan Shayxim Suhayliyni e'tirof etgan.

Xoja Osafiy zikri. "Boburnoma"da Osafiy haqida muxtasar, ammo xarakterli ma'lumotlar berilgan. Jumladan, uning she'riyati haqida: "She'ri rang va ma'nidin xoli emastur. Agarchi ishq va holdin bebaxradur... g'azaliyotini inisi yo aqrabosi jam qilibtur. G'azaldin o'zga nav she'r kam aytibdur" [Бобур 2002, 138]. Boburning mazkur bahosini Davlatshohning munosabati ham tasdiqlaydi. Davlatshohning "Tazkirat ush-shuaro"dagi uslubi shunday: u o'zi tasvirlayotgan shaxslarning ijodkorligiga ko'proq e'tibor qaratadi, uning shoirligini ko'rsatib berishga intiladi. Faqat Xoja Osafiy zikrida mana shu uslubdan biroz chekingan, u asosiy e'tiborni Osafiyning nasabi, shaxsiga qaratadi. Faqat bir o'rinda "Xoja Osafiy shoirlikda oliy martabaga ega" [Самарқандӣ 2015, 465] deyish bilan cheklangan. Bunday ifoda ham takallufdek tuyuladi. Shu ma'noda Boburning Osafiy haqidagi tanqidlari o'rinli deyishga asoslar mavjud.

Xullas, “Boburnoma” XV asr adabiyoti tarixini o‘rganishda ham juda muhim manba bo‘la oladi. Undagi ma‘lumotlar ochiq, muxtasar va keskin xarakterga ega bo‘lsa-da, ular muallifning uslubi bilan izohlanadi va adabiyotimiz, adabiyotshunosligimiz o‘tmishini tadqiq etishda katta ahamiyatga ega. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”si ham bu jihatdan qimmatli. Zero, ushbu asardan keltirilgan yuqoridagi ma‘lumotlar ishonchligi, o‘zi bevosita guvohi bo‘lganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2002. *Бобурнома*. Тошкент: Шарқ.

Бойқаро, Ҳусайн. 1991. *Рисола*. Тошкент: Шарқ.

Навоий, Алишер. 1992. МАТ. 20 томлик. Т. 9. *Лайли ва Мажнун*. Тошкент: Фан.

Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. 10 жилдлик. 7 жилд. Хамса: *Лайли ва Мажнун*. Сабъаи сайёр. Тошкент: 2011.

Самарқандӣ, Давлатшоҳ. 2015. *Тазкирату-и-шуаро*. Хуҷанд: Ношир, 2015.

KOMRON MIRZO – BOBUR SHE’RIYATINING MUNOSIB VORISI

Allambergenova Nodira Gulmurzayevna*

Annotatsiya

Hindistondagi turkiy adabiyot vakillaridan biri Komron Mirzo Boburning ikkinchi o‘g‘li, iste‘dodli shoir, otasi Bobur an‘analarini munosib davom ettirgan yuksak iste‘dod sohibidir. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va Komron Mirzolarning o‘zbek tilida chop qilingan devonlaridagi she‘riy asarlar, jumladan, g‘azal, ruboiy va fardlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Devon, g‘azal, ruboiy, fard, obraz, an‘ana, an‘anaviy tasvir.*

KAMRON MIRZA IS A WORTHY SUCCESSOR OF BABUR'S POETRY

Annotation

Komron Mirza, one of the notable figures in Turkish literature in India, was the second son of Babur. He was not only a gifted poet but also a remarkable talent who carried forward the rich traditions established by his father. This article conducts a comparative analysis of the poetic works of Zahir ad-Din Muhammad Babur and Komron Mirza, specifically focusing on their contributions in the Uzbek language, encompassing ghazals, rubai, and fards.

Key words: *devan, ghazal, rubai, fard, image, tradition, traditional image.*

Komron Mirzo Qobulda tug‘ilib Hindistonda yashagan bo‘lsa ham, turkiy adabiyot bilan yaqindan tanish bo‘lgan, xususan, Navoiy ijodiga muhabbat qo‘ygan va hatto bir she‘rida “Turkiyda Navoiyga yetsam, ne ajab, g‘oziy”, - deya niyat qiladi. Shuningdek, otasi shoh va shoir Bobur asos solgan Hindistondagi turkiy adabiyotning rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

* Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, O‘zbek adabiyoti kafedrası dotsenti v.v.b., farzona-n@mail.ru

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Babur: a ruler, poet and encyclopedist scientist	5
Franko KARDINI. Великий правитель, любящий искусство слова или великий поэт, любящий царство	15
I SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATI, DAVLATCHILIK SIYOSATI PANEL I. THE LIFE, ACTIVITIES, AND STATEHOOD POLICIES OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR	
Zokirjon MASHRABOV. Bobur – sayyoh va tabiatshunos olim	22
Stephen Frederic DALE. Babur's Timurid Sultanate	25
Nurboy JABBOROV. Bobur – kamolot timsoli	41
Kemal Yavuz ATAMAN. Global/Küresel Bir Lider Portresi: Babür Şah	49
Vahob RAHMONOV. Bobur qilmagan vasiyat muammosi	58
Mehmet AÇA. Babür Üzerinden Bir Kahramanlık Okuması	61
Sultonmurod OLIM. Bobur hayoti, e'tiqodi va ijodida tasavvufning o'rni va ahamiyati	67
Ramiz Əskər. Babur fenomeni	74
Abdumajid MADRAIMOV. Taqdir, tarix va tasvir (Boburning g'aroyib taqdiri, tarixi va tasviri)	78
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Hukmdorlarga o'rnak bo'ladigan, dunyo olimlari havas qiladigan umr e'tirofi	82
Azizullah ARRAL. Kobulda shoh bo'lmishdur hazrati Bobur	89
Botir YULDASHEV. Boburiylar davlatida yerga egalik qilishning jogird tizimi	94
Azizjon SHARIPOV. "Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy-harbiy faoliyatiga doir ma'lumotlar (Hindiston fathi misolida)	101
Avazbek MIRZAYEV. Zahiriddin Muhammad Boburning tabiatshunoslikka oid qarashlari	114
Quvonch EHSONULLO. Afg'onistondagi Bobur bog'ining tarixiy va bugungi holati	117
Erkin Mohammad Aalim. Zahiriddin Muhammad Boburning Afg'onistondagi hokimiyati va obodonchilik sohasida amalga oshirgan ishlari	124
II SHO'BA. BOBURIYLAR IMPERIYASIDA FAN VA SAN'AT TARAQQIYOTI PANEL II. THE IMPACT OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S LITERARY LEGACY ON THE ADVANCEMENT OF GLOBAL AESTHETIC THOUGHT	

Abdurrahman GÜZEL, Ali Fuat BİLKAN. Babürlü Kuzey Hindistanında Ali Şîr Nevâyî Tesiri	129
Almaz ÜLVİ (BİNNATOVA). İki qüdrətli şah – iki şöhrətli şair (<i>Şah İsmayil Xətai-566 və Zahirəddin Məhəmməd Babur-540</i>)	135
Jaloliddin JO'RAYEV, Gulsanam XOLIQULOVA. Abulvajd Forig'iy va uning adabiy merosi	137
Sebahat DENİZ. Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının Gelişmesindeki Rolü	147
Ilyos ISMOILOV. "Boburnoma" da shuaro zikri	148
Nodira ALLAMBERGENOVA. Komron Mirzo – Bobur she'riyatining munosib vorisi	152
PANEL III. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINING ADABIY-ESTETİK, ANTROPOLOGİK VA LINGVOKULTUROLOGİK XUSUSIYATLARI	
PANEL III. THE LITERARY, AESTHETIC, ANTHROPOLOGICAL, AND LINGUACULTURAL CHARACTERISTICS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S WORKS	
Qosimjon SODIQOV. Boburning til bilimi borasidagi qarashlari	157
Tanju Oral SEYHAN. Babur Şah ve Kültür Politikasında Türk Dili ve Edebiyatının Yeri	169
Farhad RAHIMI. Çağatay Sözlüklerinde Bābūr Şah Tanıkları Üzerine	182
Ziyodaxon TESHABOYEVA. Tibbiyot terminlarining "Boburnoma" da aks etishi va inglizcha tarjimalari	197
Süveyda ŞAHİN, Nergis BİRAY. Babur Divanında Geçen Organ Adlarıyla Yapılmış Deyimler	206
Muqaddas ABDURAHMONOVA. Omonimiya – turkiy tillarga xos semantik imkoniyat sifatida	214
Alisher MAMAJONOV, Abduvohid ALISHEROV. Bobur ma'naviy-axloqiy ruhiyati – yoshlarga ibrat	219
Tohir TURDIBOYEV. Bobur g'azallaridagi bog'lovchilarning pleonastik xususiyati	225
Sayyora SHODMONOVA. "Boburnoma" dagi vaqt o'lchov birliklari leksemalarining inglizcha tarjimalarda qayta tiklanishi	228
IV SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE'RIYATINING O'RTA ASRLAR VA ZAMONAVIY ADABIY JARAYON TAKOMILIDAGI O'RNI	
PANEL IV. THE ROLE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S POETRY IN THE DEVELOPMENT OF MEDIEVAL AND MODERN LITERATURE	
Bilâl YÜCEL. Zahîrüddin Muhammed Babur'un Rubaisindeki Matematik Sanatı	238
Nusratullo JUMAXO'JA. Bobur forsiy she'rlarining badiiyati	247
Mehmet SARIKÖSE. Babür Divanı'nda Şahsiyetler	254
Iqboloy ADIZOVA. Bobur ijodida kichik masnaviy janri	265

“Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug’ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.

Uilyam Erskin

“Bobur dilbar shaxs, Uyg’onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo’lgan, u san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko’rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo’lib, ko’p yaxshi fazilatlarga ega bo’lgan”.

Javoharla’l Neru

“Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo’lsa-da, u o’z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko’tarildi. O’z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o’lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi”.

Pirimqul Qodirov

“U turli go’zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatleri ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelar edi”.

Hasanxo’ja Nisoriy



www.tsuull.uz



interdep@navoiy-uni.uz

ISBN 978-9910-9964-2-9



9 789910 996429